

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

“Agrokimyo, tuproqshunoslik va O’HQ kafedrası

5100200 – *“Agrokimyo va agrotuproqshunoslik*

ta’lim yo’nalishi bakalavriat bitiruvchisi

HAYDAROVA UMIDA TOSHPO’LATOVNA
MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Mavzu: CHO’L ZONASI TUPROQLARI VA ULARDAN QISHLOQ XO’JALIGIDA
FOYDALANISH

Ilmiy rahbar, proф _____ P.Uzaqov

Malakaviy bitiruv ishi “Agrokimyo,

Agronomiya fakulteti dekani

tuproqshunoslik va O’HQ” kafedrası

*yig’ilishida muhokama qilindi va DAK himoya-
tavsiya etildi. Kafedra mudiri,*

dotsent _____ M. A. Hayitov

sigá

dotsent _____ A.O’Maxmatmurodov

« ____ » _____ 2012 y

« ____ » _____ 2012 yil

Bayonnoma № _____

SAMARQAND-2012

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I..Adabiyotlar.....	7
sharhi.....	7
II. Cho`L ZONASI TUPROQLARI	12
2.1.Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar tarqalishi.....	12
2.2.Geologik tuzilishi va reliefi.....	13
2.3.Gidrogeologiyasi.....	14
2.4.Iqlimi.....	15
III.Cho`L TUPROQLARI UMUMIY XUSUSIYATLARI	17
3.1.Cho`l zonasi tabiiy iqlimi sharoitlari, xususiyatlari.....	17
3.2.Tuproqlar morfologiyasi.....	20
3.3.Mehanik tarkibi.....	22
3.4.Suv fizik xossalari.....	24
3.5.Suvda oson eruvchi tuzlar.....	25
3.6.Gips.....	29
3.7.Karbonatlar.....	30
3.8.Singdirilgan asoslar tarkibi.....	31
3.9.Agrokimyoviy xossalari.....	34
3.10.Cho`l zonasi sur-qo`ng`ir tusli tuproqlaridan qishloq xo`jaligida foydalanish.....	37
IV. Taqirli tuproqlar.....	40
4:1 Taqirli tuproqlarning umumiy harakteristikasi.....	40
4.2. Taqirli tuproqlarning xossalari.....	41
V. 5. Voha taqirsimon tuproqlari.....	44
5.1. Voha taqirsimon tuproqlarinin tarqalishi umumiy xususiyatlari.....	44
5.2. Voha taqirsimon tuproqlarining fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, genezi va ulardan foydalanish.....	45
VI.Mamlakatni modernizasiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning yo`nalishlari va ustuvor vazifalari.....	48
VII.Hayot faoliyati xavfsizligi.....	53
VIII.Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va chora-tadbirlari.....	58
IX. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi”.....	63
X.Xulosa va takliflar.....	70
XI.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	73
XII.Ilova. Internet ma`lumotlari.....	76

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining qariyb 70% maydonini cho'l zonasi tashkil etadi.

Cho'l zonasi tuproqlarini meliorativ xolatini yaxshilash, unumdorligini oshirish sho'rlangan tuproqlarni sho'rini yuvish botqoq yerlarda quritish (melioratsiyasi) olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yer, suv masalalariga bo'lgan munosabatlar o'zgardi va bu borada islohotlar olib borilmoqda. Cho'l zonasi tuproqlarining tabiiy unumdorligi va tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda inson o'z ehtiyojiga qarab, o'zgartirib borishi mumkin.

Bugungi kunda cho'l zonasi tuproqlari dexqonchilikning katta rezervi hisoblanadi, cho'l zonasi tuproqlarining ona jinsi tarkibining ko'pchiligida karbonatlar va suvda oson eruvchi tuzlar mavjud. Tuproqlarning suv fizik xossalari yaxshi lekin o'simliklar hisobiga to'planadigan biomassa u ham ildizlari hisobiga to'g'ri keladi (1 tonna atrofida)

Mana shuning uchun ham cho'l sharoitida o'simliklar qoplamini oshirish tuproqning suv fizik xossalarini yaxshilash cho'l tuproqlari unumdorligini oshirishning bundan keyingi dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilish fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer uchastkalarining optimallashtirish paxta, g'allaning xarid narxlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz bermoqda.

Paxta va g'alla kabi strategik muhim qishloq xo'jaligi ekinlari bilan bir qatorda meva sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi, qayta ishlash tarmoqlari va ichki bozorni sut, go'sht, kartoshka, sabzavot kabi eng muhim oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun mustahkam xom-ashyo bozori yaratilmoqda. Maxsus ishlab chiqarilgan keng ko'lamli dasturni izchil amalga oshirish hisobidan yerning meliorativ holati mutassil yaxshilanmoqda, faqat 2010 yilning o'zida yerning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 mlrd sumdan ortiq mablag' yunaltirilgan va bu 724 kmlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ quduqlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kmlik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta

tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari shuningdek markaziy Farg`ona hududi va Qoraqalpog`iston Respublikasida irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010 yilda halqaro moliya institutlarining 62 mln dollardan ziyod mablag`lari jalb qilindi va o`zlashtirildi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosidagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug`oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini fermer hamda dehqon xo`jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo`lib xizmat qilmoqda.

I. BOB. Adabiyotlar sharhi.

Tuproqlar geografiyasining maqsadlaridan biri barcha tabiiy kompleksni ifodalaydigan tuproq sharoitlari bo'yicha turli-tuman hududlarini bir-biriga ajratish uchun xizmat qilishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga amal qilgan holda, O'rta Osiyoni birinchi tadqiq qiluvchilar qoldirgan, g'oyaviy merosni rivojlantirishda O'zbekiston tuproqshunoslari, O'rta Osiyoda eng birinchi tuproqshunoslik borasidagi muassasalar tashkil etilganidan boshlab, O'rta Osiyo va O'zbekiston hududi ma'lum qismlarini o'xshashligi va farqini aniqlash vazifasini yechishga kirishdilar.

Nazariy, bilimga qaratilgan qiziqishdan tashqari, O'zbekiston hududini bo'linish masalasini qayta ko'rib chiqish bo'yicha urinishlar dehqonchilik sistemasi va usullarini aniq tabiiy asoslariga binoan defrensiatsiyalash tabaqalashtirishning konkret amaliy zarurlari qishloq xo'jalik tarmoqlarini va qishloq xo'jalik ekinlarining navlarini joylashtirish, agrotexnik va meliorativ tadbirlarini jarayonlashtirish maqsadida tabiiy asos yoritishdan kelib chiqadi.

O'zbekiston tuproqlari 1-tom monografiyasining 1949 yilda nashr etilishi bilan O'zbekiston hududini tuproqlar nuqtai nazaridan zamon talablari asosida ajratish boshlandi, qaysiki, monografiya mualliflari va boshqa tadqiqotchilarning keyingi (Gorbonov, Kemberg 1952,1961,1962, Gorbunov, Lobova, Kemberg, Shuvalov, 1951; Kemberg 1950,1953, Lobova, 1956,1957,1960,1965; Suchkov 1950) ishlari tufayli hozirgi kunda keng tarqalgan. Shuni ta'kidlash lozimki, katta maydonlarga nisbatan aynan MDH barcha janubiy-sharqiy va ba'zi chet el hududlari uchun tuproq geografik qonuniyatlarining shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ushbu bo'linish asosida quyidagi prinsipial qoidalar turadi:

1.O'zbekistonning barcha territoriyasi tekislik va tog'li qismi, Turon tuproq iqlimi provinsiyasiga mansub bo'lib (Gerasimov 1933 va Korovin, Rozanov, 1938 yillar bo'yicha) kontenental subtropiklarning shimoliy uchastkasiga kiradi.

2. Respublikasining tekislik g'arbiy qismi sobiq SSSRning eng janubiy tuproq zonasi sifatida kenglik yoqalik sistemasiga mansub bo'lgan cho'l zonasiga kiradi.

3.O'zbekiston hududining qolgan qismi, och tusli bo'z tuproqlardan boshlab tuproqlarning vertikal poyas (vertikal zonallik) viloyatiga kiradi.

O'zbekistonning cho'l zonasi tuproqlarining genetik mustaqilligi va tavsifi A.B.Kembergning do'ktorlik disertatsiyasida (1968) batafsil bayon etilgan.

Cho'l zonasi deganda M.D.H-dagi eng issiq va quruq zona tushuniladi.

Ushbu zonaga ilgari M.D.H-ning janubiy-sharqiy qismidagi chala cho'llar zonasi (Gellir, Korobin va Gepner, 1955) va bo'z tuproqlar zonasining janubiy qismi (Korobin, 1934) kiritilar edi.

Faqatgina, O'zbekiston tuproqshunoslari (Kemberg, Gorbunov va boshqalar) va ba'zi Moskva tuproqshunoslar ishlari tufayli cho'l tushunchasi hozirgi ancha qisqa qiyofaga ega bo'ldi. Shu bilan birga O'zbekiston cho'l zonasi sharoitining tuproq paydo bo'lishidagi ahamiyatining quruqlilik ariatnik darajasi bo'yicha Markaziy Osiyo va shimoliy Afrika cho'llariga nisbatan pastroq turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Cho'l zonasi Respublika barcha hududining 3/2 qismini ishg'ol etadi.

Bunda bizga sug'oriladigan tuproqlarning yarmidan kuprog'i va sug'orish uchun yaroqli zahiradagi yer fondining 60 % joylashgan.

Cho'l zonasida qorako'l qo'ylarining 10 mln.lab gektar yaylovlari mavjud. Cho'l zonasi tuproqlar qoplamini o'rganish tarixi bo'yicha ko'pgina ilmiy maqola va ishlar chop etilgan (Kudren va Rozanov 1937, Kemberg va Shuvalov 1949, Kemberg va Umarov 1957; Labova 1960).

Toshkentlik tuproqshunoslar tomonidan ilgari surilgan cho'l zonasi tuproqlarining genetik mustaqilligi konsepsiyasining ba'zi mintaqalari O'rta Osiyo tuproqlarini ilk o'rganishidagi ma'lumotlarda ham kiritilgan edi.

Masalan: S.S.Nyustrev (1913) va L.I.Prasalov (1925) bo'z tuproqlarini Turkiston tekisliklarida uchramasligini va ular tog' oldi tuproqlari ekanligini vertikal zonallikning birinchi pog'onasi deb ta'kidlaganlar.

Keyinchalik Nyustrev va Prosolovlarning ushbu fikrlari yoddan chiqarila boshladi va uzok vaqtlar, ba'zi mavzudan chetga chiqishlar bilan quyidagi qoidalar joriy qilindi:

Bo'z tuproqlar paydo bo'lishi nafaqat tog' osti qiya tekisliklari va Tyanshan, Pomir-Oloy va Kopettog tog' oldi viloyatlarini, shu bilan birga O'rta Osiyoning pastki tekislik qismining g'arbiy qismini ishg'ol etadi degan tushuncha ustun edi.

N.A.Dimo (1924) Turkistonning g'arbiy past tekislik qismida «cho'l tuproq paydo bo'lish tipini» ajratdi.

U 3 ta yirik tipchalarga bo'linadi:

1. Tuproq paydo bo'lishining boshlang'ich bosqichidagi atremetiv yosh cho'l och tusli tuproq.

2. Cho'l och tusli tuproqlar.

3. Gipsli «strukturali» cho'l och tusli tuproqlar ba'zi xollarda tog' qismidagi tuproqlar Dimo tomonidan och tusli cho'l-dasht mintaqasi yoki qalin tog' ostki va tog' och tusli tuproqlar ajratilgan.

I.B.Gerasimov (1931) bitta «cho'l bo'z tipidagi tuproq paydo bo'lishida» quyidagi tuproq tipini ajratadi: «cho'l bo'z tuproq», «sho'rtopsimon strukturali cho'l bo'z tuproq», «taqirsimon cho'l bo'z tuproq va ishqorsizlangan yuvilgan cho'l bo'z tuproq».

Keyinchalik A.A.Valishen va E.N.Ivanovalar bilan birgalikda u bitta cho'l bo'z tuproqlar tipini ajratdi, qaysiki aynan cho'lning tuproqlari bilan bir qatorda tipcha darajasida lyossli tog' oldi va tog' osti och tusli bo'z tuproqlarini ham kiritdi.

O'rta Osiyo g'arbiy tekislik qismi tuproq qoplami bo'yicha balandlik poyaslilik viloyatlari ancha aniq chegaralashni (B.V.Gorbinov, N.V.Kemberg, S.A.Shuvalovlar 1941) ishlarida ko'rish mumkin.

Balandlik mintaqa viloyati avtomorf tuproqlari (och tusli, tipik va toqk tusli bo'z tuproqlari)ni bo'z tuproqlar tipining asosiy mazmuni sifatida qarash bilan birgalikda, ular cho'l tuproqlarining cho'l qobigiga o'tuvchi premetiv yosh bo'z tuproqlarning tipchasi sifatida ajratadi. Ammo bu yerda ham bo'z tuproqlar atamasi ustunlikga ega bo'lgan.

Hozirgi zamon tushunchasiga tomon sezilarli qadam I.R.Gerasimov (1947,1949) tomonidan qo'yildi, qachonki cho'l zonasida, asosan skeletli jinslardagi qadimgi yuza tuproqlarga nisbatan qo'llanilishida Nyustrovning «sur qo'ngir» atamasini tikladi. Ammo bu hali avvalgi sur zonasi bo'z tuproqlar poyasi va cho'l mintaqasiga bo'lishini anglatmaydi, chunki Gerasimovdan keyingilar ichida premetiv bo'z tuproqlar qolgan edi.

Cho'l tuproqlaridagi bo'z tuproqlar atamasidan Moskva tuproqshunoslarining boshqa vakillari ham ko'p yillar voz kechmadilar.

Masalan: E.V.Lobova 1956 yilgacha, Toshkent tuproqshunoslari tomonidan taklif etilgan taqir tuproqlar premetiv taqirsimon bo'z tuproqlar deb atalib keldi, cho'l zonasi tekis mustahkam qumli maydonlar, bo'z tuproqli qumlar deb atalib kelindi.

Masalaning hozirgi zamon holatiga birmuncha ijodiy burilish 1949 yilda B.V.Gorbunov, N.V.Keneberg, S.A.Shuvalov, M.A.Pankovlar tomonidan amalga oshirilgan, qaysiki bunda «O'zbekiston tuproqlar 1-tom monografiyasida cho'l zonasi bo'z tuproqlar mintaqasidan

tomomila aniq ajratilgan va cho`l zonasi tuproqlari uchun bo`z tuproqlar atamasining oxirgi tushunchalariga barham berilgan XX asrning ikkinchi yarmida cho`l zonasi chegaralari va mazmuniga nisbatan yangicha nazarlar qator tadqiqotchilar tomonidan ma`qullangan.

Masalan: N.N.Rozov (1954) cho`l zonasining sur-qo`ngir tusli va taqirli tuproqlarini «bo`z tuproqlar» zonasidan alohida ajratadi.

E.V.Lobovanning qator ishlarida (1956-1965) cho`l zonasining genetik mustaqillik konsepsiyasi qo`llab quvvatlangan va yangicha asoslangan, shu bilan birga cho`l zonasi u tomonidan sobiq SSSRning barcha hududlarida shuningdek ba`zi chet mamlakatlarda ham ajratilgan.

Aftidan E.N.Ivanovlar va N.N.Rozovlar (1960) tomonidan bo`z tuproqlarni sur-qo`ng`ir va taqir tuproqlarga keskin qarama-qarshi qo`yilganligiga aynan E.V.Lobovanning ishlari ta`sir etgan bo`lsa kerak. Ular tomonidan bo`z tuproqlar tipi sur-qo`ng`ir va taqir tuproqlar tiplari turli sinflarga va turli tuproq paydo bo`lishining jahon guruhlariga kiritilgan.

Birinchisi-subtropik tuproq paydo bo`lishining jahon guruhi bo`z-cho`l tuproqlar sinfiga va ikkita, ikkinchisi-subborial tuproq paydo bo`lishining jahon guruhining qo`ng`ir-cho`l tuproqlari sinfiga.

Sobiq ittifoq tuproqshunoslarining chet ellar bo`yicha tadqiqotchilarida cho`l zonasi tuproqlarining barchasi yoki ulardan ayrimlari, asosan, sur-qo`ngir tusli tuproqlar, taqirlar, qumli cho`l tuproqlari tavsiflanadi yoki ko`rsatib o`tilgan ishlar B.B.Igorov (1962) V.A.Kovda (1959), V.A.Nosin (1961)larning

Markaziy Osiyo cho`llari va L.R.Asmoevning (1965) va L.E.Rodin va N.I.Ivanovanning (1965) yaqin sharq bo`yicha ilmiy ishlari shular jumlasiga kiradi.

Bo`z tuproqlarni aynan cho`l tuproqlaridan ajratish g`oyasi ma`lum darajada chet el adabiyotlarida ham o`z aksini topgan.

Masalan: M.L.Devan va I.Famuri eron tuproq kartasiga(1962), Subramanian va Nosirovlarning Afg`oniston tuproq kartasiga (1962), S.N.Raychoudri.

Hindiston kartasiga (1962) va Van Liir suriya kartasiga (1962) yil bergan izohlarida bo`z tuproqlardan tashqari, turli cho`l (sur-qo`ng`ir, qumli cho`l, taqirli) tuproqlarni ko`rsatadi, ular har doim ham kartografiyada ajratilmagan. N.A.Rozanov o`zining mashhur «O`rta Osiyo bo`z tuproqlari» (1951) monografiyasida Turonning tog` etagi, tog` osti qiya tekisliklari va tekisliklarning barcha bo`linishining opologenti sifati yaqqol ajralib turadi. Ammo keyinchalik unda o`z

qarashlaridan ma'lum darajada qaytganligi seziladi. U o'zining oldingi taqirsimon bo'z tuproqlar (1958) va «O'zbekiston tuproqlari» (1949) monografiyasining mualliflari ham taqirli tuproqlar deb ataladilar va shunday qilib bo'z tuproqlar atamasini faqat «cho'l bo'z tuproqlari» (sur qo'ng'ir va qumli cho'l tuproqlari) deb qoldirdi.

Cho'l zonasi sur qo'ng'ir tuproqlarining genetik xususiyatlarining asoslash ularni har tomonlama o'rganish va alohida tipga ajratish sohasida yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari A.Rasulov (1969), R.Qo'ziyev (1978), V.E.Sayiminko (2009), A.E.Ergashev, U.Q.Qosimov, A.T.Jo'rayev (1978), S.A.Abdullayev, B.Shokirov, S.Siddiqov, N.Sultonov (2010), Tursunov L.T (1981), Popov B.G, Sentimenko B.E, L.T.Tursunov (1992), R.Madrenov (2010), R.Qurbontoyev, O.Qo'ziboyev, N.Japakov, G.Usmonov (2010) va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

II. CHO'L ZONASI TUPROQLARI

2.1.Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar tarqalishi.

Cho'l zonasi sur-qo`ng`ir tusli tuproqlari markaziy va janubiy Qizilqumda tarqalgan. Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar tafsifi fakat O`zbekistonning Buxoro va Navoiy viloyatlarida joylashgan maydonlari bo`yicha bayon etiladi. Ushbu region tuproq qoplamining planli ravishda o`rganilishi Sibir daryolari suvining O`rta Osiyoga oqizilishi loyihalari ishlab chiqarilgan o`tgan asrning 60-70 yillariga to`gri keladi.

Avvalgi yillarda Qizilqumda o`tkazilgan tuproq qoplamini o`rganish ma'lumotlari asosida Cho'l zonasi sur-qo`ng`ir tusli tuproqlari markaziy va janubiy Qizilqumda tarqalgan sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar Sirdaryo va Amudaryo o`rta pastki oqimlari orasida 14155,5ming hektarni egallagan.

O`zbekiston hududida Qizilqum cho`li asosan Buxoro va Navoiy viloyatlarida joylashgan va juda kam qismi Amudaryoning Qoraqalpog`iston hududidagi etak qismida tarqalgan.

Aslida shimoliy Qizilqumlar Qozog`iston hududida joylashgan. O`zbekistonda esa markaziy va janubiy Qizilqumlar tarqalgan. Qizilqumlarning g`arbiy chegarasi Amudaryo deltasi va Orol dengizi havzalari hisoblanadi. Janubiy uning chegarasi Arnasoy, sharqda Nurota tog`larining shimoliy etak qismi va sharqda Zarafshon daryosining quyi oqimi bo`ylab o`tadi, janubiy-g`arbiy chegarasi esa Amudaryo hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi tuproqshunoslik va agronomiya instituti xodimlari tomonidan 1965 yilda tuproq kartasi tuzilgan. 1973 yilda O`rta Osiyo «suv-paxta» loyihasi (Supazgiprovodxlopok) instituti tomonidan mavjud ma'lumotlar va Orol dengizi havzasida o`tkazilgan tekshirishlar asosida ushbu rayonning tuproq meliorativ xaritasi tuzilgan.

Ushbu xaritalar O`zbekiston, Turkmaniston va Qozog`iston bir qismi hududidagi katta maydonni qamrab oladi.

Qizilqum tuproq qoplamini istiqbolidagi o`zlashtiriladigan va sug`oriladigan obyekt sifatida Qizilqum tuproq qoplamini yanada mukammalroq o`rganish maqsadida 1970-1975 yillarda tuproqshunoslik va agronomiya instituti xodimlari tomonidan ekspeditsiya tashkillashtirildi va natijada ushbu region tuproqlari haqida qo`shimcha katta ma'lumotlar olishga erishildi. O`tgan asrning oxirgi yillarida olib borilgan tekshirishlar va qum tuproq qoplami haqidagi ma'lumotlar yanada boyitildi.

2.2.Geologik tuzilishi va reliefi.

Tavsiflanayotgan regionda geomorfologik jihatdan baland platalar va tog` tuzilmalari ajratiladi. Aynan qizilqumlar, ularning tekislik qismining yoki yuqori-quyi nepletsion to`rtlamchi davr yotqiziqlaridan iborat va iol difalatsion-akumlyativ kompleksining oli plast tabaqasi bir xil tarkibli cho`kindi tog` jinsli tuzilishi tekislik oblastiga mansub.

M.T.Burak va V.M.Fonunlarning (1971) qayd qilishi bo`yicha Qizilqumlarning tekislik qismi ikki yarusli relief xarakteridir. Tubjoy deb ataluvchi,uvallar etagi keskin suratda ajratilmagan balandlik mavjudligi bilan belgilanadigan ajratib turadigan pastki tepaliklarda jamlangan iol qumlar, qum tepaliklar va barxanlar shaklidagi ustki qumlarga ajratiladi. Qizilqumda qum yotqiziqlarining qalinligi har xil uning shimoliy qismida qumlar reliefi tizma tepaliklardan iborat bo`lib, greadxobe qum yotqiziqlarining qalinligi 5 metrdan 30 metrgacha. Zona daryo quruq o`zaning janubida nisbatan uncha baland bo`lmagan (12 metrgacha) qum tepaliklar tarqalgan.

Aqcha bo`yida va Amudaryo bo`yining janubiy-g`arbiy qismidagi ancha yosh qizilqumlarda to`rtlamchi davr yotqiziqlari qalinligi eng kam bo`lib 5 m-dan oshmaydi.

Tepaliklar yo`nalishi asosan meridian yo`nalishda qizilqumlarning barxanli baland (usti-o`simliklar bilan qoplanib o`rnidan qo`zgalmay qolgan va har xil shakldagi) qumtepalar har xil balandliklarga, ega bo`lib baland bo`lishi to`lqinsimon tepalik reliefini tashkil etadi. Tekisliklarning absolyut balandligi shimoliy qismida 107m-dan, sharqiy qismidan esa 384 m-gacha balandlikka ega bo`lib, orol dengizi sathidan 55-331 m baland. Umumiy qiyalik shimoliy-g`arbiy yo`nalishga ega qiyalik juda kichik-0,0001-0,0002.

Qizilqum markaziy-janubiy-sharqiy qismlarida Bukontov, Jeytuntov, tomditov, A.U.Menzatov, kulchuk va boshqa tog` tizmalari baland ko`tarilib turadi. Xududi bo`yicha ular tekisliklarga nisbatan ancha kam maydonni egallaydi.

Jinslari bor, toshqo`mir,seluriy va kemberiy sistemalaridan iborat bo`lib asosan oxaktoshlar, qumtoshlar slanuslar kongrometol va turli xildagi etizitlardan tashkil topgan.

2.3.Gidrogeologiyasi.

Cho`l zonasining, jumladan qizilqumning geologik tuzilishining hususiyatlari paliozoy mastivlarilarining va tog`lar orasidagi (cho`lma) pastliklarning mavjudligi. Qizilqum xududida 2 gidrogeologik rayonlarning rivojlanishiga olib kelgan-yorik suvlari borligini (havzasi) va artezan suvlari basseyni. (Burak, Fomin 1971) Yoriq suvlar basseyni tog`li joylar, artezan suvlar esa tog` etagi tekisliklarida uchraydi. Markaziy Qizilqumdagi tog`li rayonlarida yog`ingarchilikga nisbatan parlanish keskin yuqori bo`lgan.

Bahorda paydo bo`ladigan vaqtincha suv oqimlarining vujudga kelishiga sabab bo`ladi. Past tog`lar va qoldiq tepaliklardagi poleozoy yotqiziqlarining suv bilan kuchsiz ta`minlanganligi tog`lar balandligini namligi shuningdek doimiy suv oqimlarining bo`lmasligi bilan bog`liq. Bu yerlarda shaklanadigan yer osti suvlari chuchuk gidrokarbonat-kalsiylidir.

Mezazoy massivlarida asosan yoriq va yoriq karstli suvlar shakllanadi va ular yoriqsimon karstlar ko`p va tektonik maydalangan ishqor mavjud zonalarida uchraydi. Bukan tog`, tomdi tog`, kuljitov, Areston tog` va A.U.Menzatov kabi past tog`lar yoriq yer osti suvlarining zonolari bir necha yoriqlardan joylashgan. Yoshiga qarab qumtoshlar, kongromerotlar, dolometlar va granadiotitlar, kristall, gneyslar suv saklaydigan yotqiziqlar hiaoblanadi.

Yoriq suvlarning minerallanish darajasi 0,5-1 dan 10-15 g/l gacha boradi. Minerallanish tipi gidrokarbonat, natriyli kalsiyli, sulfat-xloridli, natriyli va kalsiy magniyli gachadir.

Markaziy Qizilqumning artezanli basseynlarida puchak (kovakli) plastli va puchak-yoriqli bonusli suvlar hosil bo`lishi kuzatiladi.

Puchak grunt suvlari ham tarqalgan Tubilik, Bazauboy va Qoraqatin artezanlari basseynlarida yuqori pliosiy yotqiziqlaridagi suvli gorizont g`ovak qumtoshlar, qumlar va qumli sozlardan tashkil topgan. Sizot suvlari chuqurligi 1-3 m-dan 20-60m-gacha. Minerallanish darajasi turlicha 1 dan 10 g/l ba`zan esa juda yuqori. Minerallanish tipi sulfat xloridli, natriyli va kalsiyli. Sho`r suvlaridan toshgan, atmosfera yog`inlari va kondentatsiyalangan namliklardan hosil bo`lgan chuchuk suvlar linzalariga uchraydi. Ularga Mingbuloq, Uzinqoq, Bazauboy, Tubilik va Qoraqatin artezan basseynlaridagi loylar va alivloylilar orasida tarqalgan turli rangdagi toshlar va qumtoshlardan tashkil topgan. Sizot suvlari 20-50 m-dan 100 metrgacha chuqurlikda uchraydi.

Suvlar ko`pchilik hollarda sho`r, minerallashtirish darajasi 7dan 10-35 g/lgacha juda kam hollarda 1-3 g/l sho`rlanish tipii sulfat xloridli va xlorid sulfatli natriylidir.

Markaziy Qizilqumning yuqorida qayd qilingan artezan basseynlarning suvli komplekslari qatorida yana yuqori va bo`z yotqiziqlari suv saqlovchi komplekslari ham keng tarqalgan. Ular asosan qumtoshlar, qumlar ba`zan esa nisbatan ham qumlar qatlami bo`lgan alivritlar tashkil topgan.

Suvli komplekslar chuqurligi 100-200 m chetki va markaziy qismlarida yanada ham chuqurroq.

Minerallanishi 5-8dan 35 g/lgacha kamdan-kam hollarda 1-2 g/l, tipi xlorid- sulfatli, yuqori bo`z yotqiziqlarida plastlar orasidagi suvlar chetki qismlaridagi bosimsiz, Markazida esa o`zi oqib chiqadigan suvlar uchraydi.

Mingbuloq, Qoraqatin, Bazauboy va Uzunqoq pastliklari tagida yuqori bur davrining katta bosimli suvlarida yuqoriga ko`tarilayotgan buloqlar sifatida yer ustiga chiqib, dellivial-plorivial yotqiziqlarda to`plangan grunt suvlarining oqimsiz havzasini vujudga keltiradi. Sizot suvlarining yaxshi joylashishi va cho`l iqlimi pastliklar tagida sho`rxoklarning paydo bo`lishiga olib kelgan.

2.4.Iqlimi.

Cho'l zonasining iqlimi keskin kontenental yozi juda quruq va issiq. Qishi esa qattiq va sovuq Qizilqumda o`rtacha yillik harorat 11,5 dan 18⁰S gacha.

Shimoliy rayonlarda, janubga nisbatan o`rtacha yillik harorat ancha past. Qizilqumda Havoning maksimal harorati iyul-avgustda (44<sup>0</sup>S). Absolyut minimum yanvarda (-31<sup>0</sup>S) oyida kuzatiladi. Qizilqumning g`arbiy qismida o`rtacha yillik yog`in miqdori 100 mmdan oshmaydi.

Past tog`ning shimoliy qismida yog`inlar miqdori 110-140 mmgacha yetadi. Qizilqum uchun qariyb barcha yog`inlar qish va bahor davriga to`gri keladi, shamolning doimiy isishi xarakterli hisoblanadi.

Kuchli shamol va chang bo`ronli kunlar soni 17-48 kunni tashkil etadi. Ularning maksimal tezligi 17-20 m/s va undan ham ko`proq. Paxta ekish uchun qulayligi jixatidan iqlimi baholashda o`rtacha yillik harorat bilan bir qatorda unuv davrini uzoqlaydi. (Urtacha (10<sup>0</sup>S)dan yuqori haroratli kunlar soni) hamda samarali haroratning yig`indisi kabi ko`rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Paxta ekish va undan barqaror yuqoriroq hosil olish imkoniyati jixatidan muhim agroiqlim ko`rsatgichlaridan biri-10⁰S dan yuqori bo`lgan samarali haroratlar yigindisi hisoblanadi. L.N.Babushkin (1960) ma'lumotlariga ko`ra g`o`za o`simligining turli guruhlar ekin ekishdan 50% o`simliklarda birinchi ko`sakning ochilishigacha zarur bo`lgan ko`p yillik o`rtacha foydali harorat miqdori turlicha va quyidagi miqdorini tashkil etadi:

Juda tezpishar navlar-1680-1690⁰

Tezpishar navlar1720-1730⁰

O`rtacha tezpishar 1795-1805⁰

O`rta kechpishar 1875-1885⁰

Kechpishar navlar 1960-1970⁰

Juda kechpishar 2100⁰

O`rta Osiyoning turli Respublikalarida o`tkazilgan maxsus agrometereologik kuzatishlar g`o`zaning 50% ko`saklarining ochilishi uchun barcha yillarda o`rtacha ko`p yillik harorat yig`indisi ko`rsatilgan miqdorga nisbatan qaraganda 350⁰ oshirilishi kerakligi isbotlangan.

Tabiiy sharoitlari xususan tuproq qoplami va iqlimi bo`yicha ma'lumotlarni o`rganishga asoslanib, I.N.Feletsiant, T.M.Konodiyeva, B.V.Garbonov, M.A.Abdullayevlar (1984 Pochva O`zbekistan Buxarskaya, Navoiskiy oblast)lari tomonidan Paxta yetishtirish imkoniyati maqsadida Qizilqumni rayonlashtirish ishlari ham o`tkazilgan.

Qizilqum hududida 2 qatiiy qishloq xo`jalik okrugi ajratilgan. Qaysiki ular rayonlarga bo`lingan. Qizilqum tabiiy qishloq xo`jalik okrugi quyidagilarga ajratiladi:

1.Shimoliy qizilqumlar; qumlar, qumli cho`l va sur-qo`ngir tusli tuproqlar rayoniga;

2.Markaziy qizilqumlar; sur-qo`ngir tusli, qumli tuproqlar va qumlar;

3.Janubiy-g`arbiy Amudaryo bo`yidagi qizilqumlari; kulteпа barxan qumlar va qumli cho`l tuproqlar rayoni;

Janubiy qizilqum-tabiiy qishloq xo`jalik okrugida ajratiladi va quyidagilar kiradi.

1.Zarafshon daryosining; hozirgi deltasi, cho`l zonasining sug`oriladigan o`tlok tuproqlari va qumlar rayoni;

2.Zarafshon daryosining; qadimgi deltasi tekisligi; sur-qo`ngir tusli, qumli cho`l, taqirli tuproqlar va qumli rayonlari.

III.CHO`L TUPROQLARI UMUMIY XUSUSIYATLARI

3.1.Cho`l zonasi tabiiy iqlimi sharoitlari,xususiyatlari.

O`zbekistonning shimoliy qismi tabiiy sharoiti bo`yicha turli-tumanligi sababli – tuproqlarning ma`lum darajada xilma-xil bo`lishi va tuproq qoplamining murakkabligini belgilaydi. Ko`pchilik qismi qumli va sur-qo`ngir tusli cho`l tuproqlari ancha kam miqdorda taqirli va taqir tuproqlardan tashkil topgan.

Qizilqum tuproqlar keyingi vaqtlargacha suv manbalari bilan ta`minlanmaganligi sababli dehqonchilik uchun esa yaroqsiz yoki uzoq kelajakda yaroqli hisoblanadi. Cho`l zonasi tuproqlarining xilma-xilligi va ushbu hudud tuproq qoplamining tuzilmalari, qator tuproq paydo bo`lish omillari jumladan tuproq mahalliy sharoit uchun ancha ahamiyatga ega bo`lgan litologik va geomorfologik tuzilishi keltirilgan. Relifi tuproq paydo qiluvchi jinslar va gidrogeologik sharoitlariga bog`liqdir. Shuningdek deflatsiya va shamol mahsulotlarining qayta yotqizilishi kabi hozirgi va o`tmishdagi giodynamik jarayonlar katta rol o`ynaydi.

Tuproq paydo qiluvchi jinslar ularga xos xossalariga ko`ra tuproqlar turli-tumanligini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu

jihatdan tuproq paydo qiluvchi jinslarining letologiyasi (mekanik tarkibi, shag'alliligi va kimyoviy tarkibi (gipsligi, sho'rhokligi) birinchi darajali ahamiyatga ega.

Cho'lda asosan qumli lol yotqiziqlari va yengil mehanik tarkibli qumli va qumloq tuproqlarining shuningdek prolivial yotqiziliqlardagi tog`osti tekisliklari tuproqlarining shag'alliligi darajasining yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. Tog`osti tekisliklarining keng rivojlanganligi qaysiki ularning hosil bo'lishi o'lchamiga juda katta prolivial yotqiziqlarning paydo bo'lishiga o'xshash, gips to'planishining keng rivojlanishi ushbu hududning hozirgi suv va juda kam ta'minlanganligi va tushuntirish qiyin. O'zbekiston cho'llari o'zining rivojlanishida bir necha nam davr plyuvial Gerasimov (1937) davrlarni o'tkazgan.

Plyuvial davrlarining almashinishida to'plangan gipsli va tuzli hosilalarini quritish cho'l mintaqasining hozirgi sharoitida ko'rishi kondesvlashganga o'xshashdir. Kam miqdordagi atmosfera yog'inlari va yuqori darajadagi parlanish sharoitida tuproq grunt suvlarining pastga va yuqoriga yo'nalishi tuzlarning tuproq qatlamidagi yuvilishi sodir bo'lmaydi, shu bilan birga juda katta parlanish obyekti bo'lgan berk pastliklarida, hozirgi paytda ham tuzlar to'planishi davom etmoqda.

Turon cho'li iqlimining ekstra quruqliligi sababli o'simliklar qoplami siyrak joylashgan va ularning turlari bunday sharoitda deflyasiya jarayoni juda ham kuchli namoyon bo'ladi va bu tuproq ustki gorizontlarining yemirilishiga deflitsiyalanish kuchayishiga va shamol mahsulotlarining qayta yotqizilishi tufayli barxanlar, qumtepaliklar va o'simlik tuplari oldida balandligining hosil bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa qumli yotqiziqlar tarqalgan viloyatlarda deflyatsiya jarayoni kuchli namoyon bo'ladi.

Atmosferada yog'inlarning kamligi va parlanishning yuqoriligi sababli qizilqumda tuproqning namlanishi juda kuchsiz, shu sababdan sizot suvlar odatda katta chuqurlikda joylashgan va avtomorf tuproqlarining rivojlanishiga olib keladi.

Qizilqumning avtomorf tuproqlari asosan qumli va sur-qo'ng'ir tusli cho'l tuproqlaridan tashkil topgan. Taqirli va taqir tuproqlar va sho'rhoklarga nisbatan kichik maydonlarni egallaydi va regioni janubiy qismidagi Zarafshonning qadimgi deltasida tarqalgan Qizilqum tuproq qoplaminin umumiy sho'rlanishida qumli cho'l tuproqlari eng katta maydonni egallaydi. asosan ular qalin qumli yotqiziqlar ustida tarqalgan. Ushbu tuproqlar maydoning kam qismi Zarafshon daryosining qadimgi

deltasida va tog`osti tekisliklarida tarqalgan Qizilqumda sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar ancha katta maydonni ishg`ol etmaydi. Ular asosan pasttog`larda, qoldiq platalarda va tog`osti tekisliklarida bundan tashqari Zarafshonning qadimgi deltasida tarqalgan.

Qizilqumning past tog`li va qoldiq platalarida zich jinslar va ularning elliviallarida rivojlangan. Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar qalinligi kam, skeleti va odatda kuchli erroziyaga uchragan. Tog`li relef sharoiti tekisliklaridan ancha balandda joylashganligi sababli ulardan sug`oriladigan dehqonchilikda foydalanib bo`lmaydi. Bu jihatdan Zarafshonning qadimgi deltasidan tashqari yana tog`osti tekisliklaridagi sur-qo`ng`ir tusli tuproqlari sug`orish uchun ancha qulay hisoblanadi. Ushbu tuproqlarining asosiy maydonlari Bukantov va tomditovning janubiy qismi, Qazaqtov va ko`kchatov balandligining Avminzatov va ko`ltutovlarining oralig`ida joylashgan bular asosan quyito`rtlamchi va o`rta to`rtlamchi qisman yuqori to`rtlamchi davr dellivial-allivial yotqiziqlari oblastlari hisoblanadi.

Odatda 2m dan chuqurda dag`al skelet miqdori keskin oshadi. Tuproq yuzasi mayda zarrachalarni shamol uchirib ketganligi sababli tosh va shag`aldan iboratligi qalqon bilan qoplangan.

Ko`pincha tuproq yuzasi qumlangan Kenemix artezan havzasidan XX asrning 50 yillarida sug`orish ishlari boshlangandan keyin Qizilqumda Kenemix artezani havzasidan yuqoriga oqib chiqadigan yer osti suvlari hisobiga sug`orish ishlari boshlangandan keyin yangi kichik vohalar tayyor bo`la boshladi.

Ancha yirik sug`orish maydonlari Karakatin cho`kmasi, oqsoy va Qizilkesak soylarida uchraydi. Yuqorida qayd etilgan vohalarda yangidan o`zlashtirilgan sug`oriladigan sur-qo`ng`ir tusli va sur-qo`ng`ir o`tloq tuproqlari tavsiflangan.

Sug`oriladigan sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar relefining nisbatan baland ko`tarilgan elementlarida joylashgan bo`lib, sizot suvlari chuqur sug`oriladigan joylarda uchraydi va vegetatsiya davridagi sug`orish suvlari ta`sirida yuqoriga ko`tariladigan sizot suvlari evaziga davriy ravishda yuqori namlikka ega bo`ladi. Sur-qo`ng`ir o`tloq tuproqlari relefiga nisbatan joylashganligi drenaj tarmoqlarining qalinligi va holatiga ko`ra yuvilgan va turli darajada sho`rlangan bo`lishi mumkin. Quruq holda qoldirilganda kuchli sho`rlanadi.

Ushbu tuproqlarlarning shakllanishi sizot suvlari ishtirokida aftidan o`zlashtirilgan davrgacha maydonlarda sizot suvlar yer yuzasiga

joylashgan turg'un namlanadigan sur-qo'ng'ir o'tloq tuproqlari uchraydi.

Sug'orishga bog'lik bo'lmagan holda o'zlashtirilgan davrgacha sodir bo'lgan, buni tuproq profilidagi gidromorfologik belgilarining ancha keskin namoyon bo'lishidan bilish mumkin.

Tavsiflanayotgan regionda uchraydigan tuproqlar nomlarini to'lik keltirish uchun yana uni kam tarqalgan bo'lsada, sho'rhoklar va taqirlarni ham qo'shish mumkin. Qizilqumning katta maydonlari asosan yaylovlar sifatida foydalaniladi. Qariyb yil davomida Qizilqumda boqiladigan qorako'l qo'ylari, suruvlarini suv bilan ta'minlash va yaylovlarni sug'orish maqsadida ko'p sonli artezan quduqlarining kovlanishi hajmdagi yer osti suvining mavjudligi aniqlandi.

Shu sababli o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab yem-xashak chiqarish uchun artezan suvlari bazasida kichik Oazesli sug'orish ishlari rejalana boshlandi.

O'zlashtirilgan yerlarda beda, jo'hori, sudan o'ti, makkajo'hori va boshqa yem-xashak, poliz va daraxtchil ekinlari ekila boshlandi.

Hozirgi davrda Zarafshon daryosining chap qirg'onida Malik cho'l, Qarshi cho'li, Surxon, Sherobod va boshqa cho'llarda sur – qo'ng'ir tusli taqir va taqirli tuproqlar va qumli cho'l tuproqlarini sug'oriladigan dehqonchilik uchun o'zlashtirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

3.2.Tuproqlar morfologiyasi.

Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlar morfologiyasi xususiyatlari genetik gorizontlarining aniq tabaqalashganligi, karbonatli gorizontning aniq ajratilib turilishi gips to`planishining mavjudligi bilan harakterlanadi. Tuproq paydo qiluvchi jinslar har doim u yoki bu darajada skeletligi; chaqirtosh, mayda va dag`al silliklangan sha`gal yoki qirrali shag`alli. mayda qismi ko`pincha qumloq va qumlardan iborat.

Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlarning yuqori qatlamida 10-12 sm sarg`ish-qo`ng`ir tusli zich, karbonatlashgan kam rivojlangan, gumusli qatlam mavjud. 40-60 sm chuqurda gipsli qatlam rivojlangan. Uning ostida skeletlashgan qumli zich qatlam uchraydi.

Bu qatlam ostida «S» gorizont rivojlanib u tuproq hosil qiluvchi ona jinsdan iborat.

Sur-qo`ng`ir tusli tuproqlarining morfologik belgilarining tavsiflash uchun bir nechta tipik kesmalar tavsifini keltiramiz.

Sur qo`ng`ir tusli tuproqlar morfologiyasini harkaterlaydigan 17 kesma (I.N.Filyanskiy va boshqalar, 1984) tasvirini keltiramiz.

Kesma Beshbuloqdan 30 km shimoliy sharqqa Ko`lquduqqa ketadigan yo`lga yaqin, tog` osti qiya tekislik, o`simliklar qoplami ancha zich asosan shuvoq kam miqdorda, saksovulning kichik butalari juda kam cho`l qiyoy o`tidan iborat. Tuproq yuzasi yirik qum va qirrali tosh bilan qoplangan.

1.Sur-qo`ng`ir tusli tuproq, qumloq, chag`ir mayda tosh.

2. Mayda shag`ali, qum ustida A.0-10 sm och sur, sarg`ish tusli, quruq qumloq tangachasimon yaproqsimon chidamsiz sturukturali tik yoriqlari mavjud. Ingichka ildizlar yer kovlagichlarining inlarida ham uchraydi.

Yirik qumlar sepilgan qatlam bo`ylab qirrali toshchaning siyrak qo`shilmalari uchraydi.

Tusi va qovushmasi bo`yicha qatlamdan qatlamga o`tishi aniq.

B₁ 10-40 sm Qoramtil qo`ng`ir yorqin qumloq zich, chidamsiz kesakli tik yoriqlar mavjud. Kichik ildizlar va yer kovlagichlar inlari uchraydi.

Gorizontning barcha qismida karbonatlarning oqishtob dog`lari va tuganaklari ko`p uchraydi. Keyingi gorizont o`tishi keskin.

B₂ 40-60 sm sarg`ish- oqishtob, quruq, dag`al silliklangan shag`al, qirrali tosh(xryosh) aralashgan, qumloq, zich, g`ovak,qatlam qalinligi

bo`ylab, kam mikdorda nozik ildizlar, hasharotlarning ayrim yo`llari g`alvirak-uzunchoq, tuzilgan gips to`plamlari juda ko`p. Keyingi gorizontga o`tishi asta-sekin uncha aniq emas.

S₁ 60-80 sm ustki gorizontga nisbatan kam darajada oqroq, quruq, qumloq-qumli chag`ir toshli va shag`alli zich yakka-dukka ildizlar uchraydi va gipsli g`alvirak uzun gips ajratmalari juda ko`p va g`alvirak uzunchoq keyingi gorizontlarga o`tishi asta-sekin.

S₂ 80-115 sm qo`ng`ir kristallashgan gipsning tipik oq uyalari ko`p yirik qum chag`ir va dag`al uvalangan shag`al zich bunday tuproqlar tog` oldi tekisliklarini o`rta va yuqori qismida keng tarqalgan.

Tekislikning tekislangan pastki qismida qumlar bilan chegaradosh palasasida sur-qo`ng`ir tuproqlar qumlarning uchirilishi tufayli yuzasidan qumlangan sur-qo`ng`ir tusli tuproqlarini ko`madigan uchirib olib kelingan qum qatlamining qalinligi turlich: bir necha sm dan 1 metr va undan ham ortiq quyida sur-qo`ng`ir tuproqlar 16 kesmaning tavsifini keltiramiz.

16 kesma. Bezpulak qishloqning sharqiy shimoliy sharqiy qismida 8 km uzoqlikda joylashgan.

Janubiy g`arbiy tog` qiyaliklaridagi kuchsiz to`lkinsimon tekislik. Yaylov o`simlik qoplami -ferula saksovul va juda siyrak shuvoq o`simliklari bilan ranglangan. Tuproqlar yuzasi yirik qum va qirrali toshlar bilan qoplangan.

30-40 sm balandlikdagi o`simlik tuplari atrofida ayrim qum tepalari mavjud. Kesma yassi uncha baland bo`lmagan do`ngliklarining o`rta qismida joylashgan.

Kesma-16 Sur-qo`ng`ir tusli tuproq qumli qirrali toshli gipslashgan proluvial yotqizi ustida, usti qum bilan qoplangan.

A₁ 0-8 sm Sursimon sarg`ish qo`ng`ir tusli nozik qum, qirrali toshga xoshiyolar ko`p qo`shilgan quruq yumshoq uncha mustahkam bo`lmagan kesakchalar bilan, pastki qatlamga o`tishi aniq.

A₂ 8-16 sm. Rangi yuqoridagidek quruq mayda chidamsiz kesakchali qum, rang ildiz poyalari bilan g`ovak chimga birikkan keyingi gorizontga o`tishi aniq.

V₁ 16-39 sm sarg`ish qo`ng`ir yangi qumli, qumli (xryash) va yirik qum qo`shilgan ancha zich kichkina ildizchalar ancha ko`p keyingi gorizontga o`tishi keskin.

V₂ 39-58 sm qo`ng`ir axru rangidagi (sarg`ish kizil dog`lar) bilan oqimtil bo`yalgan va korbanatlarning yirik tugunchalari ko`p. Juda zich

quruq katta miqdordagi yirik qum aralashgan yengil qumoq gorizontga o'tishi aniq.

S 58-12- sm. Qum bilan aralashgan qirrali toshga (Xroyosh) va mayda shag'alli qo'ng'irtob sur, sarg'ish dog'lar bilan yirik kristalligi gipsning katta to'plamlari bilan gorizont 65 smdan pastda kam skeletli gips va qumni kam saqlaydigan qirrali toshchali (xroyosh) li yangi(toza) juda zich chapga tomon zichligi kam. Kasma profilining tavsifidan ma'lumki tuproq 39 sm chuqurlikkacha qumli chexol (g'ilofi) bilan qoplangan.

40 smdan pastga profil tusi keskin o'zgaradi va sarg'ish-qo'ng'ir tus oxrali (sarg'ish qizil) dog'lar bilan qo'ng'ir tusga o'tadi.

Ushbu chuqurlikdan boshlab skelet miqdori keskin oshadi. 58sm dan boshlab yirik kristalli gipsning ko'p miqdorda hosil bo'lishi kuzatiladi.

3.3.Mehanik tarkibi

Sur-qo'ng'ir tusli tuproqlarning mehanik tarkibi bo'yicha o'rta va og'ir qumlardan hosil qilgan. Eng avvalgi tadqiqotchilar (Gorbunov Konodiyeva 1976, Gorbunov va boshqalar 1979) ma'lumotiga ko'ra qizilqum cho'lida maydoni bo'yicha yengil mehanik tarkibli qumli va qumoq tuproqlar keng tarqalgan.

Qumli cho'l tuproqlari asosan mayda qumdan iborat, qum fraksiyalaridan tashkil topgan chang fraksiyalari va loyqa miqdori birgalikda ko'pchilik hollarda 20-4 %dan oshmaydi.

Bunday mehanik tarkibli tuproqning barcha profili va tuproq osti gorizontlari uchun asosiy harakterli xususiyatidir.

Qumli cho'l tuproqlar mayda chang kam miqdorda saqlanganligi uchun strukturasiz organik moddalar kam, singdirish sig'iminining kichikligi organik bilan xarakterlanadi.

Qizilqum cho'lida tipik sharoitida delyuvial prolivial yotqiziqlar ustida rivojlangan. Sur qo'ng'ir tusli tuproqlar qumloq ayirmalari keng tarqalgan. Tuproqning mayda qismi qumli cho'l tuproqlariga uxshash asosan qumli fraksiyalardan tashkil topgan, ammo loyqa va fizik deyarli sozlar bo'ladi. sur qo'ng'ir tusli tuproqlar uchun tuprok prfilini urta kismida mexanik tarkibini biroz ba'zan ko'proq yuqoriga to'planishi __ odatda yengil qumoqgacha kuzatiladi.

Tuproq osti gorizontlari qumlok va hatto qumlardan tashkil topgan. Ko'p miqdorda quyosh (qirrali toshcha)li yirik qumli va kuchsiz uvalangan shag'aldan iborat. shelet elementlari profilining yuqori qismida ham uchraydi ammo kam miqdorda tuproq yuzasida esa odatda

(qopqoq, zirk) hosil bo`ladi. Karbonat usti gorizantlar qalinligi ancha yuqoribulgan sur qong`ir tusli tuproqlar ustki olib kelingan qismi qumli va mexanik tarkibi buyicha qumli cho`l tuproqlariga xshash bulib, ulardan xryosh va mayda shagallar kabi kam miqdordagi qo`shilmalar mavjudligi bilan farqlanadi. Ushbu tuproqlar pastki gorizantlari bo`yicha tipik sur qo`ng`ir tusli tuproqlarga o`xshash. Tuproq profilining o`rta qismida mexanik tarkibini og`irlashuvi va fizik loyning ancha ko`pligi sababli sur qo`ng`ir tusli tuproqlar, qumli cho`l tuproqlariga nisbatan cheklangan dala kam sig`imining ancha kattaligi va suv o`tkazuvchanligining bir muncha kichikligi bilan xarakterlanadi.

Ammo bu ko`rsatgichlar sug`orish uchun qulay bo`lgan darajada bo`ladi. Kenimix tumani 40 yillik davlat xo`jaligining Artezian qishlog`i yaqinida joylashgan dalada yomg`irlatib sug`organda yomg`ir jadalligi 400m<sup>3</sup>ga va sug`orish normasi 600m³ga ni tashkil etadi. Bunday yomg`irlatib sug`orish rejimida xatto qiyalik 2-3⁰ni tashkil etsa ham, sur qo`ng`ir o`tloq tuproq yuzasida oqim hosil bo`linadi. **1-jadval**

Sur qo`ng`ir tuproqlarning mexanik tarkibi

Tuproq namunasi olingan chuqurligi,sm	Fraksiya, (% hisobida)							
	>0,25	0,25- 0,10	0,10- 0,05	0,05- 0,01	0,01- 0,005	0,005- 0,001	>0,001	<0,01
Janubiy-G`arbiy Qizilqum (N.A.Buskov)								
0-10	10.36	4.02	62.56	8.70	2.30	3.97	4.64	11.0
10-15	8.37	3.91	63.95	6.70	3.78	5.68	7.61	17.07
20-30	6.10	3.22	34.80	6.60	1.71	8.59	18.98	29.28
50-60	6.71	9.77	54.82	9.33	2.81	5.37	11.19	19.37
80-90	13.07	22.50	53.87	0.89	1.56	1.37	7.74	9.67
Ustyurt platosi S.A.Shuvalov								
0-5	1.83	3.93	16.46	34.60	11.35	22.20	8.60	42.15
6-11	0.98	3.35	11.44	28.85	8.95	22.80	27.65	69.40
30-40	1.35	4.40	22.45	25.65	7.90	16.50	22.20	46.15
Devxona platosi (M.U.Umarov)								
0-5	29.7	16.1	26.4	16.8	2.6	4.4	4.0	11.0
5-12	17.3	16.8	26.7	22.5	4.0	7.7	5.0	16.7
12-28	17.5	16.0	16.5	9.5	4.2	13.7	24.0	41.3
28-45	24.6	14.6	17.7	10.4	4.2	8.3	17.6	30

3.4.Suv fizik xossalari

Qumli choʻl tuproqlarini hajm massasi ular profilining bir xil tuzilishiga ega ekanligi uchun genetik gorizantlar boʻyicha, qariyb bir xil koʻrsatgichga ega. Ildizlar koʻp joylashgan va oʻtuvchi gorizantga hajm massasi biroz pasayadi. Tuproq osti gorizontlari, shamol bilan olib kelingan qumning hajm massasi 1,050g/sm³ni tashkil etadi.

2-jadval

Tuproqning hajm massasi va namligi.

Kesma raqami, tuproklar	qalinligi sm	Massasi gr/sm³	Namlik %	1 metrda suv miqdori
Sur qoʻngʻir	0-12	1,41	4,2	1633
	12-23	1,40	8,6	
	23-48	1,41	9,8	
	48-59	1,43	13,6	
	60-75	1,46	11,7	
Sur qoʻngʻir	0-5	1,41	2,3	11213
	5-20	1,36	5,4	
	20-35	1,40	6,3	
	35-50	-	6,5	
	50-75	-	11,7	
Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir oʻtloqi	0-28	1,65	8,1	2070
	28-50	1,59	10,4	
	50-70	1,60	11,0	
	70-13	1,72	19,0	
Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir oʻtloqi	0-28	1,58	12,7	2548
	28-60	1,59	14,5	
	60-87	1,58	21,6	
	87-115	1,57	27,4	
Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir oʻtlogi	0-20	1,58	6,9	962
	20-35	1,56	4,8	
	45-55	1,49	3,9	
	75-85	1,55	7,4	
Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir oʻtlogʻi	0-10	1,59	3,6	986
	12-27	1,52	3,7	
	27-70	1,55	5,4	
	70-110	1,61	9,8	

Prolivial yotqiziqlaridagi sur qoʻngʻir tusli tuproqlar hajm massasi qumli choʻl tuproqlaridan kam darajada farq qiladi. Ularning hajm

massasi 1,36-1,46 g/sm³, shu bilan birga zich (kattik) gorizantlarning og'irlashuvi juda kuchsiz ifodalangan.

Sug'oriladigan sur qo'ng'ir o'tloq tuproqlar sur qo'ng'ir tusli tuproqlardan farqli o'laroq ancha katta xajm massasiga ega ko'p hollarda 1,55 dan -1,60 g/sm³ gacha, qaysiki bu tuproqlarni muntazam sug'orilishi ta'sirida cho'kkanligi va tuproq zarrachalarining ancha zich joylashganligidan darak beradi. Shuni ta'kidlash kerakki 4-yildagi bedapoyada sug'oriladigan sur qo'ng'ir o'tloq tuproqlarining haydalma qatlami zichligi 1,58-1,59 g/sm³ gacha oshadi. Cho'l zonasining tabiiy namligi mezotermik davrining tugashi oldidan juda past tuproq; ostida 135-150 sm chuqurlikda 2 %ga yaqin (ogirrigiga nisbatan) yog'inlar evaziga namlanadigan tuprok gorizontlarida esa ancha yukori 3,3-3,6% gacha

